

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI**



“TASDIQLAYMAN”

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya
pedagogikasi milliy instituti direktori,
akademik

X.I.Ibraimov

2026-yil

**13.00.09 – IJTIMOIIY PEDAGOGIKA IXTISOSLIGI BO‘YICHA
TAYANCH DOKTORANTURAGA**

KIRISH IMTIHONI

DASTURI

TOSHKENT – 2026

ANNOTATSIYA

Mazkur dastur 13.00.09 – Ijtimoiy pedagogika ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoniga tayyorgarlik ko'rish uchun mo'ljallangan. Dastur talabgorning ijtimoiy pedagogika nazariyasi va tarixi, shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy-pedagogik tashxis, profilaktika, korreksiya, rehabilitatsiya, bolalarni himoya qilish, oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi hamda zamonaviy tadqiqot metodologiyasiga oid nazariy va kasbiy tayyorgarligini baholashni nazarda tutadi.

Dastur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi, 2024-yil 1-fevraldagi O'RQ-901-son "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi hamda 2024-yil 14-noyabrdagi O'RQ-996-son "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar, Prezidentning 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son va PQ-232-son qarorlarida belgilangan vazifalarga asoslanadi.

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-51-son, 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son, 2025-yil 5-maydagi PF-76-son va 2025-yil 24-dekabrdagi PF-256-son farmonlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi 423-son hamda 2026-yil 28-yanvardagi 34-son qarorlari talablarini hisobga olgan holda yangilandi.

Prezidentning 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son, 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son va PF-22-son, 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son hamda 2026-yil 26-maydagi PF-98-son farmonlaridagi ta'lim sifati, milliy tarbiya, xavfsiz va inklyuziv muhit, pedagog va ilmiy kadrlar tayyorlashga oid ustuvor yo'nalishlar dastur mazmuniga singdirildi.

Eslatma. PF-98-son Farmonga ko'ra, 2026-yil 1-sentabrdan ustuvor ilmiy ixtisosliklarga qabul kirish imtihoni o'rniga ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti asosida amalga oshiriladi. Mazkur tartibning 13.00.09 ixtisosligiga tatbiqi vakolatli vazir tasdiqlaydigan ustuvor ilmiy ixtisosliklar ro'yxati asosida aniqlanadi.

Tuzuvchi:

Qori Niyoziy nomidagi TPMI
Milliy tarbiya, mutafakkirlar va
jadidlarning pedagogik
ta'limotlari" bo'limi mudiri
p.f.d., prof. R.Safarova

Taqrizchi:

p.f.d., prof. X.M.Tojiboyeva

Ushbu dastur Institut Kengashining 2026-yil 28-avgustdagi 7-sonli yig'ilishida tasdiqlangan.

SO‘Z BOSHI

Ijtimoiy pedagogika bo'yicha kirish imtihonining maqsadi talabgorlarning mazkur fan bo'yicha nazariy, metodologik va kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlashdir. Ijtimoiy pedagogika shaxsning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy tarbiya, himoya va qo'llab-quvvatlash jarayonlarining qonuniyatlarini o'rganadi hamda bolalar, oila va ta'lim hamjamiyatidagi ijtimoiy-pedagogik muammolarni erta aniqlash va bartaraf etishga ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqadi.

Talabgor ijtimoiy-pedagogik konsepsiyalarni tahlil qilish, turli toifadagi bolalar va oilalar bilan ishlash texnologiyalarini tanlash, xavf va himoya omillarini baholash, idoralararo hamkorlikni tashkil etish, ijtimoiy-pedagogik dastur va individual qo'llab-quvvatlash yo'nalishini ishlab chiqish hamda natijalarni dalillarga asoslangan metodlar bilan baholash kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

ijtimoiy-emotsional ta'limni milliy tarbiya qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish va maktab muhitiga integratsiyalash;

bolalarni zo'ravonlik, kamsitish, bullying, ekspluatatsiya va boshqa ijtimoiy xavflardan himoya qilish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar uchun inklyuziv qo'llab-quvvatlashni tashkil etish;

raqamli ijtimoiylashuv, media savodxonlik, kiberxavfsizlik va kiberaxloq masalalarini ijtimoiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish;

miqdoriy, sifat va aralash tadqiqot metodlari, akademik yozuv, tadqiqot etikasi hamda ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanish.

Talabgorning "Ijtimoiy pedagogika" fani bo'yicha o'rganishi zarur bo'lgan minimum bilimlar mazmuni

1. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini ifodalovchi me'yoriy hujjatlar, ularning mazmun-mohiyati haqida.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim va bolalarni himoya qilish sohasidagi siyosati, uzluksiz ta'lim tizimida shaxsni ijtimoiylashtirish prinsiplari, ta'limning insonparvarligi, demokratikligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirilganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, teng imkoniyatlar, inklyuzivlik, pedagogning maqomi hamda davlat, oila va jamiyatning bola manfaatlarini ta'minlashdagi mas'uliyati.

2. Ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari. Ijtimoiy pedagogika fani jamiyat rivojining asosi sifatida.

Ijtimoiy pedagogikaning turkum fanlari tizimidagi o'rni. Ijtimoiy pedagogika fanining predmeti, ob'ekti, maqsad va vazifalari.

Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlardan farqi.

Ijtimoiy pedagogikaning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va roli, jamiyatda ijtimoiylashuv jarayonining globallashuvi.

3. O'zbekistonda Ijtimoiy pedagogikaning paydo bo'lishi, shakllanishining shart-sharoitlari.

Ijtimoiy pedagogikaning dastlabki tarixi.

Avestoda shaxs ijtimoiylashuvining dastlabki shakllari haqidagi qarashlar, Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy pedagogikaga oid ilmiy qarashlari;

Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixiga oid metodologik yondashuvlar.

4. O‘zbek xalq pedagogikasi va islom ta’limotida ijtimoiy pedagogik g‘oyalar.

“Qur’oni Karim”, “Hadisi sharif”lardagi ijtimoiy pedagogik g‘oyalar, ularning o‘rni va ahamiyati.

O‘zbek xalq pedagogikasida ijtimoiy pedagogik jarayonlarni rivojlanishi va bugungi kundagi ahamiyati.

5. Sharq mutafakkirlari asarlarida shaxs ijtimoiylashuvi masalalarining ifodalanishi.

Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Maxmud Qoshg‘ariy asarlarida shaxs ijtimoiylashuvi masalalarining talqin etilishi.

Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Xusayin Voiz Koshifiy asarlarida shaxs dunyoqarashi va ijtimoiylashish masalalarining yoritilishi.

6. Xorijda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi.

Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy pedagogikaga oid ilmiy yondashuvlar.

Yevropa mamlakatlari ta’lim tizimida ijtimoiy pedagogikaga oid tadqiqotlar. Rossiya pedagogikasida ijtimoiy pedagogikaga oid ilmiy tadqiqotlar.

Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy pedagogikaning ilmiy va nazariy asoslari.

7. O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi.

Ijtimoiy pedagogika tushunchasi. Mustaqillik davrida Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tavsifi.

Ijtimoiy pedagogikaning pedagogik fanlar sirasida tutgan o‘rni.

Ijtimoiy pedagogik tadqiqotlar va ularni amalga oshirish metodikasi.

8. Ta’lim-tarbiya jarayonidagi ijtimoiy pedagogikaga oid dolzarb muammolar.

Ta’lim-tarbiya jarayonidagi ijtimoiy pedagogik dolzarb muammolar.

Ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida vujudga keladigan ijtimoiy-pedagogik muammolar.

Pedagogik va ijtimoiy-pedagogik loqaydlik, mas’uliyatsizlik, e’tiborsizlikning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish yo‘llari.

Zamonaviy jamiyatda shaxs tarbiyasi masalalari.

9. Ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari.

Ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida.

Odam-individ va shaxs sifatida. Inson shaxsining moddiyati, biologik va ijtimoiy jihatlarining uyg‘unlashuvi.

shaxsning tarkib topishida irsiyat, muhit va kamolot (ta’lim-tarbiya).

O‘quvchi shaxsi kamolot jarayonining ob’ekti va sub’ekti.

10. Ijtimoiy pedagogika fanining kategoriyalari va tamoyillari.

Pedagogika va ijtimoiy pedagogika tamoyillari. Ijtimoiy pedagogik faoliyat.

Ijtimoiy ta’lim. Tarbiya va ijtimoiy tarbiya. Ijtimoiy pedagogik mexanizmlar.

Ijtimoiy pedagogikaning insonparvarlik, tarbiyaning tabiatga va madaniyatga uyg‘unligi tamoyillari.

11. Ijtimoiylashuv – ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida. Ijtimoiylashuv omillari va vositalari.

Ijtimoiylashuv tushunchasi va jarayoni.

Ijtimoiylashuv omillari va vositalari, ijtimoiylashuv agentlari va mexanizmlari.

12. Ijtimoiy tarbiya.

Ijtimoiy tarbiya tushunchasi. Ijtimoiy tarbiyaning maqsad va vazifalari.

Ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan faoliyatning mazmuni va turlari.

Asotsial axloqning mazmun-mohiyati va uni bartaraf etish.

13. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining mazmuni.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyat tuzilmasi. Ijtimoiy pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlari.

14. Ijtimoiy pedagogik faoliyat texnologiyalari.

Ijtimoiy pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mohiyati.

Ijtimoiy pedagog faoliyatida texnologiyalarning samaradorligi.

15. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat turlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bolalar muassasalari sharoitlariga ko'nikishlarining o'ziga xos xususiyatlari.

16. Umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlarining ijtimoiy faolligini oshirish usullari va metodlari.

Umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlarining ijtimoiy faolligini oshirish dolzarb ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.

Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish shakl, metod va vositalari.

17. Ijtimoiy pedagogning maktab yoshidagi bolalar bilan ish yuritishi.

Maktab yoshdagi bolalar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat mazmuni.

Maktab yoshidagi bolalar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat turlari.

Umumta'lim maktablarining asosiy ijtimoiy vazifalari.

18. Muqobil parvarish muassasalari va oilaviy joylashtirish shakllaridagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Muqobil parvarish muassasalaridagi ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmuni.

Bolalarga diagnostik, psixologik-profilaktik, korreksion va maslahat yordamini ko'rsatish. Rehabilitatsiya va reintegratsiya ishlari.

19. O'zbekiston oilaviy bolalar uyini tashkil etish tartibi va shartlari.

Oilaviy bolalar uyining maqomi, ularning tashkil etilishi. Oilaviy bolalar uyining maqsad va vazifalari. Bolalarni oilaga joylashtirish shakllari.

Oilaviy bolalar uyini tashkil etish tartibi va shakllari.

20. Ijtimoiy pedagogikada vasiylik va homiylik.

Vasiylik va homiylik tushunchasi. Vasiylik va homiylik tarixi.

Vasiylik va homiylikning me'yoriy-huquqiy hujjatlarda aks etishi.

O'zbekiston hamda chet ellarda vasiylik va homiylik.

21. O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ijtimoiy-pedagogik yordamni tashkil etish.

O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan ta'lim va ijtimoiy xizmatlar.

Tegishli vazirlik va idoralar tizimida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan xizmatlar va ularning hamkorligi.

Bolalarning ta'lim ehtiyojlarini baholash va ularga mos inklyuziv yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim xizmatlarini belgilash.

22. O'quvchi yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.

O'quvchi yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish dolzarb muammo sifatida.

O'quvchi yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning mazmun-mohiyati.

O'quvchi yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning shakl, metod va vositalari.

23. Ijtimoiy pedagogikada ijtimoiy me'yorlardan og'uvchi xulq-atvor.

Ijtimoiy me'yorlardan og'uvchi xulq-atvor tushunchasi va uning turlari.

Ijtimoiy pedagogik tashxis va uni amalga oshirish.

24. Deviant xulq – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.

Deviatsiya va uning turlari.

Voyaga yetmagan yoshlar orasida deviant harakatlarni vujudga keltiruvchi faktorlar.

Deviatsiya konsepsiyasida rehabilitatsiya, profilaktika va korreksiya masalalari.

25. Spirtli ichimliklar iste'mol qilishga moyil o'smirlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

O'smirlarda spirtli ichimlikka moyillikning kelib chiqish sabablari.

Spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga moyil o'smirlar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.

26. Giyohvandlik deviant xulq shakli sifatida.

Giyohvandlikning kelib chiqish sabablari, turlari va oqibatlari.

Giyohvandlikning oldini olishda rehabilitatsion xizmatlar haqida.

27. Ijtimoiy pedagogning rehabilitatsion xizmati modeli va mexanizmi.

Ijtimoiy pedagogning rehabilitatsiya xizmat tushunchasi.

Yordam ko'rsatishning ijtimoiy-huquqiy, psixologik, tibbiy va pedagogik asoslari.

28. Oila, mahalla va ta'lim muassasasining ijtimoiy-pedagogik hamkorligi.

Oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligining tashkiliy-pedagogik mexanizmlari.

Oila–mahalla–ta’lim muassasasi hamkorligining maqsadi, vazifalari va natijadorlik mezonlari.

Oila, mahalla va ta’lim muassasasi ijtimoiy pedagogik hamkorligi.

Ta’lim muassasasi va oilada beriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.

29. Oila. Ijtimoiy pedagogikada oila tiplari va turlari.

Oilaning ijtimoiy vazifalari.

Oilaning ijtimoiy moslashuvi.

30. Noto’liq oilaning ijtimoiy-pedagogik muammolari.

Noto’liq oilaning kelib chiqish sabablari va turlari.

Noto’liq oilada bola shaxsini shakllantirishning samaradorligi.

Noto’liq oilada bola shaxsini shakllantirishning ijtimoiy pedagogik tizimi.

31. Bolalarni himoya qilish va xavfsiz ta’lim muhiti

Zo’ravonlik, kamsitish, bullying va ekspluatatsiya xavfini erta aniqlash, xabar berish, pedagogik profilaktika, individual himoya rejasi va idoralararo hamkorlik.

32. Ijtimoiy-emotsional ta’lim va ijtimoiy-pedagogik qo’llab-quvvatlash

Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar, milliy qadriyatlar va SEL modellarining uyg’unligi; SELni dars, sinfdan tashqari faoliyat hamda maktabning tarbiyaviy muhitiga integratsiyalash.

33. Inklyuziv ijtimoiy-pedagogik faoliyat

Alohida ta’lim ehtiyojlari va turli ijtimoiy xavf omillariga ega bolalarni qo’llab-quvvatlash, individual yo’nalish, multidisiplinar jamoa va oila bilan hamkorlik.

34. Raqamli ijtimoiylashuv va axborot xavfsizligi

Raqamli muhitning bola ijtimoiylashuviga ta’siri, media savodxonlik, kiberxavfsizlik, kiberbulling, raqamli iz, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va kiberaxloq.

35. Huquqbuzarlik va deviant xulq-atvorni barvaqt profilaktika qilish

Xavf va himoya omillari, erta diagnostika, individual tarbiyaviy yo’nalish, ijtimoiy-xulqiy trening, maktab–oila–mahalla hamda mutasaddi idoralar hamkorligi.

36. Zamonaviy ijtimoiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasi

Dalillarga asoslangan yondashuv, miqdoriy, sifat va aralash tadqiqot dizaynlari, monitoring va baholash, validlik, ishonchlilik, ma’lumotlarni tahlil qilish, akademik yozuv va tadqiqot etikasi.

13.00.09. – Ijtimoiy pedagogika ixtisosligi bo'yicha imtihon savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ta'lim-tarbiya va ilm-fanning ustuvor yo'nalishlari.
2. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida uzluksiz ta'lim, ijtimoiy himoya va yoshlar siyosatiga oid ustuvor vazifalar.
3. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha va maktab ta'limi tizimini isloh qilish sohasidagi davlat siyosatining mazmun-mohiyati va yo'nalishlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoning mohiyati.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoning mazmun-mohiyati.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida uzluksiz ta'lim va ijtimoiy himoyaga oid vazifalar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli qarorining mohiyati.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5712-sonli farmoning mazmun mohiyati.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son farmoning mazmun mohiyati.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarorining mohiyati.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-son farmoning mazmun mohiyati.
12. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati.
13. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun mutaxassislar tayyorlash tizimining huquqiy-me'yoriy asoslari.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son farmoning mazmun, mohiyati.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6- apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarorining mazmun, mohiyati.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarorining mazmun mohiyati.

17. 11 yillik o‘rta ta’lim konsepsiyasining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarorining mazmun, mohiyati.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 1059-sonli qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 6-noyabr kungi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6108-sonli farmoni.

21. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ–901-son “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun-mohiyati.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining mazmun-mohiyati.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorining mazmun-mohiyati va Institut oldiga qo‘yilgan vazifalar.

24. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabrdagi O‘RQ–996-son “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF–51-son Farmonida maktabgacha va maktab ta’limini boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar.

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF–73-son Farmonida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir ustuvor yo‘nalishlar.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF–76-son Farmonida ta’lim sifatini ta’minlash, tashqi baholash va akkreditatsiyaga doir yondashuvlar.

28. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi 423-son qarori bilan tasdiqlangan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti mazmuni.

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrdagi PF–256-son Farmonida bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo‘yicha belgilangan vazifalar.

30. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi 34-son qarori bilan tasdiqlangan yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dasturining mazmun-mohiyati.

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF–19-son Farmonida maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirishga doir vazifalar.

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmonida 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor islohotlarning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–22-son Farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturida ta’lim, tarbiya va ijtimoiy himoyaga oid ustuvor vazifalar.

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF–58-son Farmonida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini rivojlantirishning “5T” modeli.

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi PF–98-son Farmonida ilmiy kadrlar tayyorlash, qabul va attestatsiya tizimini takomillashtirishga oid yangiliklar.

36. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni amaliyotga joriy etish samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qarori.

37. Ijtimoiy pedagogika fani jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida.

38. O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning vujudga kelishiga asos bo‘lgan ijtimoiy-madaniy, tarixiy shart-sharoitlar.

39. O‘zbek xalqi pedagogikasi va islom ta’limotida ijtimoiy pedagogik g‘oyalarning ifodalanishi.

40. Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta’limotlarida shaxsni ijtimoiylashtirish muammolarining ifodalanishi.

41. Jadid ma’rifatparvarlarining shaxs tarbiyasiga oid qarashlari va ulardan o‘quvchi-yoshlarni ijtimoiylashtirishda foydalanish imkoniyatlari.

42. Jadid ma’rifatparvarlarining oila tarbiyasiga oid qarashlari.

43. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi.

44. O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi va asosiy tendensiyalari.

45. Uzluksiz ta’lim tizimida ijtimoiy pedagogikaning dolzarb masalalari.

46. Ijtimoiy pedagogika sohasidagi nazariy yondashuvlar va ularning ta’lim oluvchilar shaxsini ijtimoiylashtirishdagi ahamiyati.

47. Ijtimoiy pedagogika fanining asosiy kategoriyalari, prinsiplari va tamoyillari.

48. Ta’lim oluvchilarning ijtimoiylashuvi muhim ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida.

49. Ta’lim oluvchilar shaxsining ijtimoiylashuvi va uning asosiy shakllari.

50. Ijtimoiy tarbiya va uning asosiy vazifalari. O‘zbekistonda ijtimoiy tarbiya sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar.

51. Ijtimoiy tarbiyada o‘z yechimini kutayotgan muammolar.

52. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyatiga qo‘yilayotgan talablar.

53. Ijtimoiy pedagogning o‘z faoliyatida qo‘llaydigan texnologiyalar.

54. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatadigan ijtimoiy pedagog faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari.

55. O‘quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish usullari, metodlari va texnologiyalari.

56. O'quvchi va talaba-yoshlarni ijtimoiylashuvda gender yondashuvning ahamiyati.
57. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish orqali ijtimoiylashtirish usullari.
58. Ijtimoiy pedagogning maktab yoshdagi bolalar bilan ishlash faoliyati.
59. Mehribonlik uylaridagi ijtimoiy pedagogik faoliyat.
60. O'zbekistonda oilaviy bolalar uyini tashkil etish mexanizmlari.
61. Bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiylashtirish va rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilgan tadqiqotlar.
62. Ijtimoiy pedagogikada vasiylik va homiylik.
63. Vasiylarning bolalarni tarbiyalash sohasidagi faoliyatiga qo'yiladigan talablar.
64. O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ijtimoiy-pedagogik ko'makning mazmuni.
65. O'quvchi yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishning ijtimoiy pedagogik shart-sharoitlari.
66. Ijtimoiy pedagogikada me'yordan og'ishish tushunchasi va uning shaxs tarbiyasiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri.
67. O'quvchilar xulq-atvorining me'yordan og'ishishini bartaraf etish yo'llari.
68. O'quvchilar xulq-atvorida me'yordan og'ishning asosiy ko'rinishlari.
69. O'quvchilarning deviant xulqi ijtimoiy pedagogik muammo ekanligi.
70. Ichkilikbozlikka moyil o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar va qo'llaniladigan pedagogik chora-tadbirlar.
71. Deviant xulqqa ega bo'lgan o'quvchilarning giyohvandlikka moyilligini aniqlashga oid pedagogik chora-tadbirlar.
72. Deviant xulqli o'quvchilarga ko'rsatiladigan tarbiyaviy ta'sirlar.
73. Ijtimoiy pedagogning reabilitatsiya va reintegratsiyaga oid faoliyati hamda uning modeli.
74. Deviant xulqli o'quvchilarga ko'rsatiladigan tarbiyaviy ta'sirlar va uning samaradorligini baholash mezonlari
75. Oila, mahalla va ta'lim muassasasining o'quvchilarni ijtimoiylashtirish sohasidagi hamkorligi.
76. Ijtimoiy pedagogikada oila, uning tiplari va turlari.
77. Oila tarbiyasi bolalarni ijtimoiylashtirishning muhim vositasi sifatida.
78. Oilada amalga oshiriladigan tarbiya turlari.
79. Noto'liq oilalarga xos bo'lgan ijtimoiy pedagogik muammolar.
80. Nosog'lom oilalar bilan ishlashning ijtimoiy pedagogik texnologiyalari.
81. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning dolzarb muammolari.
82. O'quvchilarni ijtimoiylashtirishga xizmat qiladigan muhim manbalar.
83. Ijtimoiy tarbiyaning kelib chiqishi va Avestoda ijtimoiy tarbiyaga oid masalalarning ifodalanishi.
84. Farobiy asarlarida ijtimoiy pedagogika, tarbiyaga oid ta'limotlar.
85. O'quvchi va talabalarni ijtimoiylashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.

86. O'smir yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiylashtirishda foydalaniladigan yondashuvlar.

87. O'quvchilarni ijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlari.

88. O'quvchilarni ijtimoiylashtirishda ota-onalar va maktab psixologining tutgan o'rni

89. O'quvchi va talabalarni ijtimoiylashtirishda ommaviy axborot vositalarining ko'rsatadigan ta'siri.

90. O'quvchilarni ijtimoiylashtirishda san'at, madaniyat boyliklari, kitobxonlik va sportning ahamiyati.

91. Talaba va o'quvchilarni ijtimoiylashtirishda qo'llaniladigan ish turlari, jumladan mantiqiy savollar, interfaol keys-stadilardan foydalanish.

92. Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon ob'ekti va sub'ekti sifatida

93. Alisher Navoiyning shaxsni ijtimoiylashtirishga oid qarashlari.

94. O'quvchilarni ijtimoiylashtirishda mehnatsevarlikka o'rgatish va kasbga yo'naltirishning ahamiyati

95. O'quvchi yoshlarni ijtimoiylashtirishda muomala madaniyati va shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning pedagogik ahamiyati.

96. O'quvchi yoshlarni ijtimoiylashtirishda milliy hududiy an'analardan foydalanish imkoniyatlari.

97. O'quvchi yoshlarni ijtimoiylashtirishda millatlararo muloqot va tolerantlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan vositalardan foydalanish metodlari.

98. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiylashtirishda inklyuziv madaniyatning o'rni.

99. O'quvchi va talaba yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish vositalari va metodlari.

100. Etnopedagogik vositalar yordamida o'quvchi yoshlarda gender mansublik tuyg'usini shakllantirish yo'llari.

101. Qadimgi yunon faylasuflari (Suqrot, Aflotun, Arastu va Demokrit) ta'limotida yoshlarni ijtimoiylashtirishga oid qarashlar.

102. O'g'il va qiz bolalar orasida gender tenglikni ta'minlash asosida ularni tarbiyalash metodikalari.

103. shaxslararo munosabatlarning dialektik tabiatini o'rganish ta'lim oluvchilarni ijtimoiylashtirishning muhim sharti ekanligi.

104. O'quvchi va talaba-yoshlarni ijtimoiylashtirish omillari.

105. Ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish mexanizmlari.

106. O'quvchilarni ijtimoiylashtirishdagi ilg'or pedagogik tajribalarni mujassamlashtirgan pedagogik asarlar va ularda berilgan ma'lumotlarning izchilligi.

107. O'quvchi-yoshlarni ijtimoiylashtirishda shaxsning psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish.

108. O'quvchi va talaba yoshlarda ijtimoiy-madaniy dunyoqarashni shakllantirish metodlari.

109. O'quvchi hamda talaba yoshlarda ommaviy madaniyatga qarshi immunitetni shakllantirish asosida ularda fidoyilik hissini rivojlantirish usullari.

110. Alisher Navoiy asarlarida mehnatning shaxsni ijtimoiylashtiruvchi mexanizm sifatida tasvirlanishi.

111. Ijtimoiy muhit va uning ta'lim oluvchilar ijtimoiylashuviga ta'siri.

112. Umuminsoniy xarakterdagi ijtimoiy madaniy tajribani o'zlashtirish metodlari.

113. O'quvchilarni ijtimoiylashtirishda o'qituvchi va ota-ona hamkorligining shakllari.

114. Innovatsion texnologiyalar vositasida o'quvchi va talaba-yoshlarni ijtimoiylashtirish.

115. Ijtimoiy tarbiya shaxsni ijtimoiylashtirishning asosiy omili sifatida.

116. O'quvchi va talaba yoshlarni ijtimoiylashtirishda muloqot va ijtimoiy hamkorlikning pedagogik ahamiyati.

117. O'quvchilarni ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi pedagogik vositalar.

118. Huquqiy bilimlarni o'zlashtirish ijtimoiylashtirishning muhim omili sifatida.

119. O'quvchi va talaba yoshlarni ijtimoiylashtirishni ta'minlovchi zamonaviy kasblar.

120. O'quvchilar va talaba-yoshlarni ijtimoiylashtirishda ustoz-shogird maktablarining tutgan o'rni.

121. Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining mazmuni va tuzilmasi.

122. Ijtimoiy-pedagogik texnologiyasi, mazmuni va undan foydalanish shart-sharoitlari.

123. Ijtimoiy pedagogning maktabgacha yoshdagi bolalar bilan amalga oshiradigan ijtimoiy tarbiyaga oid faoliyati.

124. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy tarbiya sohasida amalga oshiriladigan ishlar tizimi

125. Ijtimoiy tarbiya jarayonining sub'ektlari, ular bajaradigan funksiyalar

126. shaxsning tarkib topishida irsiyat, muhit va ta'lim-tarbiyaning o'rni.

127. Inson shaxsining biologik va ijtimoiy jihatlari uyg'unligi.

128. O'quvchi, talabalarning ijtimoiylashuvida an'ana, urf-odat va qadriyatlarining tutgan o'rni.

129. Pedagogik va ijtimoiy-pedagogik loqaydlik, mas'uliyatsizlik va e'tiborsizlikning kelib chiqish sabablari hamda ularning oldini olish yo'llari.

130. Bolalarni zo'ravonlik, kamsitish, bullying va ekspluatatsiyadan himoya qilishda ijtimoiy pedagogning vazifalari.

131. Bolaga nisbatan zo'ravonlik xavfini erta aniqlash, xabar berish va individual himoya rejasini ishlab chiqish mexanizmlari.

132. Ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL)ning asosiy kompetensiyalari va ularning bola ijtimoiylashuvidagi ahamiyati.

133. Xalqaro SEL modellarini milliy tarbiya qadriyatlariga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik mezonlari.

134. SELni dars, sinfdan tashqari faoliyat va maktabning tarbiyaviy muhitiga tizimli integratsiyalash.

135. Huquqbuzarlik va deviant xulq-atvorni barvaqt profilaktika qilishda xavf va himoya omillari.

136. Ijtimoiy-pedagogik individual qo'llab-quvvatlash yo'nalishini ishlab chiqish va monitoring qilish.

137. Raqamli ijtimoiylashuv, kiberbulling, media savodxonlik va kiberxavfsizlik muammolari.

138. Inklyuziv ta'lim muhitida ijtimoiy pedagog, psixolog, o'qituvchi va ota-onaning multidisiplinar hamkorligi.

139. Maktab-oila-mahalla va mutasaddi idoralar hamkorligining ijtimoiy-pedagogik modeli.

140. Ijtimoiy-pedagogik dasturlar samaradorligini baholash mezonlari, indikatorlari va monitoring vositalari.

141. Ijtimoiy pedagogika tadqiqotlarida miqdoriy, sifat va aralash dizaynlar, validlik, ishonchlilik hamda tadqiqot etikasi.

FOYDALANISHGA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ–637-son “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O'RQ–901-son “Pedagogning maqomi to’g’risida”gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabrdagi O'RQ–996-son “Bolalarni zo’ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to’g’risida”gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF–134-son “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo’yicha milliy dasturni tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF–51-son “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF–73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF–76-son “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko’rsatish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrdagi PF–256-son “2026–2030-yillarga mo’ljallangan Bolalarni zo’ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF–19-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo’ljallangan ustuvor yo’nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–22-son «“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo’nalishlar bo’yicha islohotlar dasturlari va “O'zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo’yicha davlat dasturi to’g’risida»gi Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF–58-son “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi PF–98-son “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to’g’risida”gi Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–

231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to’g’risida”gi Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son “Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi 423-son “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi 34-son “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori.

22. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, «O‘zbekiston», 2016 yil, 56 bet.

23. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, «O‘zbekiston», 2017 yil, 48 bet.

24. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni.

26. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, «O‘zbekiston», 2017 yil, 488 bet.

27. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

28. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). – T., “Sahhof”, 2023, 416 bet.

29. Ishmuhammedov R.J va boshqalar. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T.: Istedod jamg‘armasi - 2010 y.

30. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar / – T.: Fan va texnologiya, 2010.

31. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: Fan, 2001.

32. M.Abdullayeva, Asqarova O‘. M.Xayitboyev. Ta’lim tarixi -T.

Muharrir. 2014.

33. Madiyarova S.A. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: “Iqtisod-moliya” 2009 y.

34. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010.

35. Mavlonova R., Torayeva O., Xoliqberdiyeva K. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 2001.

36. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.

37. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.

38. Ochilov M. Muallim qalb me’mori. – T.: O‘qituvchi, 2001.

39. Safarova R.G. “O‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari” metodik qo‘llanma [matn] tayyorlandi. “Bookmany Print”. Toshkent – 2023. 70 b.

40. Safarova R.G. Pedagoglarning o‘quvchi-yoshlarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish sohasidagi kompetensiyalarini rivojlantirish vositalari // metodik qo‘llanma. Toshkent, “Tafakkur qanoti” nashriyoti 2020 yil 160 bet.

41. Tojiboyeva X.M. Gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari: pedagogika fanlari doktori diss. T.: TDPU, 2022-yil. 222 bet

42. Xolboyev S. Jadidlar. Munavvar qori Abdurashidxonov. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 152 b.

43. Samandar S., Bekmuhammad U. Xorazm jadid namoyandalari: hayoti, faoliyati va adabiy merosi. – Xorazm: “Milleniumus print”, 2024. – 200 b.

44. Mavlonova R. Ijtimoiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – T.: Istiqlol, 2009.

45. Galaguzova M.A. Istoriya sotsialnoy pedagogiki. – M.: Vlados. 2009.

46. Vohidova N.X., Mirzaeva F.O. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: Sano-standart 2022

Dasturning axborot-uslubiy ta’minoti:

1. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

2. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali.

3. www.gov.uz/uzedu – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi.

4. www.gov.uz/edu – Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

5. www.qoriniyoziytpmi.uz – Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.

6. www.ziynet.uz – Ziyonet ta’lim portali.

7. www.oak.uz – ilmiy darajalar va attestatsiya masalalari bo‘yicha rasmiy axborot.

8. www.academy.uz – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.